

XO'JANAZAR HUVAYDO LIRIKASIDA TALMEH SAN'ATI

Telmanova Durdona Ahmadjon qizi

NamDU, o'zbek adabiyotshunosligi

yo'nalishi 2-kurs magistranti

+998935479296

Annotatsiya: Ushbu maqolada mumtoz adabiyotimizda keng tarqalgan badiiy tasvir vositasi hisoblangan talmih san'ati, uning kelib chiqish tarixi hamda adabiyotimiz tarixidagi mashhur ijodkor Xo'janazar Huvaydo ijodidan talmih san'atiga misollar keltirilgan, misollardagi tarixiy shaxslarga alohida to'xtalib o'tilgan va ularning hayoti haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: talmih, "Badoyi us-sanoyi", Majnun, Horut, "Qissasi Rabg'uziy", ma'shuqa, Iskandar Zulqarnayn.

Аннотация: В данной статье представлены примеры искусства талмиха, считающегося распространенным художественным образным средством в нашей классической литературе, история его возникновения, а также искусство талмиха из творчества известного в истории художника Ходжаназара Хувайдо, исторические личности в примерах упоминаются отдельно и даются сведения об их жизни.

Ключевые слова: талмих, «Бадойи ус-санойи», Меджнун, Хорут, «Киссаси рабгузи», любовница, Искандар Зулькарнайн.

Annotation: This article presents examples of the art of talmih, which is a widely used artistic image tool in our classical literature, the history of its origin, and the art of talmih from the works of Khojanazar Huvaydo, a famous artist in the history of our literature, the historical figures in the examples are mentioned separately and information about their life is given.

Key words: talmih, "Badoyi us-sanoyi", Majnun, Horut, "Kissasi Rabguzi", mistress, Iskandar Zulkarnayn.

Uzoq tarixga ega bo'lgan mumtoz adabiyotimizda badiylik, go'zallik masalasi she'riyat ahlining doimo diqqat markazida bo'lib kelgan. Ijodkorlarning so'z qo'llash mahorati haqida so'z ketganda, ularning badiiy tasvir vositalaridan foydalanganligi hamma davrda ham munaqqidlar tomonidan yuqori baholangan.

XVIII asr o'zbek adabiyotida o'zining lirik she'rlari va dostonlari bilan mashhur bo'lgan shoirlardan biri Xo'janazar Huvaydo ijodi ham o'zining nafis ma'no qirralari va qo'llangan badiiy tasvir vositalari bilan o'quvchini o'ziga jalb qiladi. Quyida esa biz ushbu badiiy san'atlarning eng yorqin namunasi hisoblangan talmeh san'ati haqida to'xtalib o'tamiz.

Talmih (arabcha so'z bo'lib, "nazar solmoq" degan ma'noni bildiradi) badiiy san'ati she'r misralarida mashhur tarixiy shaxslarning, joy nomlarining, afsonaviy qahramonlarning nomlarini keltirish orqali fikrni go'zal tasvirlash yoki ular bilan bog'liq asarlarga, voqealarga ishora qilishdir. Mumtoz adabiyotimizga doir bir qator asarlarda ham talmih badiiy san'ati haqida ko'plab fikrlar aytib o'tilgan. Masalan, Atoulloh Husayniyning "Badoyi us – sanoyi" asarida shunday ta'rif keltiriladi : "Talmih lug'atta bir nimaga nazar solmoqtur va bu san'atta she'r va andin o'zga nimalarga ishorat etilgani uchun ani **talmih** deb atapturlar"¹, deyilsa, "Al – mo'jam fi ma`oir – ul ash`or – ul – Ajam" asarida : "Shoir ozgina so'z bilan ko'p ma'noni ifodalasa, ana shunga **talmih** deyiladi.

Adabiyotimiz tarixidagi boshqa ijodkorlar kabi Huvaydo ham o'z she'riyatida talmih san'atidan keng foydalangan. Hattoki boshidan oxirigach tarixiy shaxslar, anbiyo va avliyolar hamda afsonaviy qahramonlar nomlari asosida yozilgan g'azallari ham mavjud.

Qani Zol-u, qani Rustam, qani Suhrob ila Bahman?

*Qani Kaykovus-u Xurmuz, qani Kayxisrav-u Doro?*²

Ushbu baytda Huvaydo yuqoridagi ismlarni shunchaki sanab o'tmagan, balki dunyoning o'tkinchi ekanligiga yana bir bor ishora qilib, shunday tarixda dong'i ketgan hukmdor-u qahramonlar ham dunyodan ko'z yumib ketganligini ta'kidlaydi.

Xuvaydo "Devon"iga nazar tashlasak, unda ko'pgina talmih san'atining yorqin namunalariga duch kelishimiz mumkin.

Vodiyi g'amdin kelibman tashnalab Majnun kabi,

Bermading bir qatraye obi zilolingdin mango.

Bu yerda Majnun Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonidagi bosh qahramon hisoblanib, oshiq o'zini ishq g'amida tashna holga kelganini ifodalaydiki, go'yo sahrodagi Majnundek bo'lib qolgan. Umuman Huvaydo g'azallarida Majnun obraziga juda ko'p murojaat qilingan. Buning sababi, menimcha, shoir chin oshiq timsolini Majnun obrazida ko'ra olgan. Buning isbotini quyidagi baytda ham ko'rishimiz mumkin :

Ayo dilbar, jahon xalqi aro afsonadur Majnun,

Sanga mandek zamona xalqidin Majnun gado bo'lmas.

Yuqoridagi baytda ham shoir Majnunning ishqisi sababli tillarda doston bo'lganligini ta'kidlagani holda o'zini ham yor ishqida Majnunga qiyos etadi.

Maqomimg osmon bo'lsa, bu nafsing royiga borsang,

¹ Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ . – Т. : Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти , 1981 , 400 б.

² Ҳожаназар Хувайдо. Девон. – Т. : Янги аср авлоди.2007, 304 6.

Osib Horutdek choh ostida bo'lg'ay iyozi³ paydo.

Huvaydoda so'z yordamida go'zal manzaralar yaratish, ulardan kutilmagan xulosalar chiqarish mahorati nihoyatda kuchli. Horut badiiy adabiyotimizda ayolga oshiq bo'lganligi sababli Alloh g'azabiga uchragan farishta sifatida gavdalantiriladi. Ushbu bayti orqali shoir inson kibrga berilib, nafsining yo'liga yursa, Horutdek azoblanadi demoqchi. Demak, bu baytni ham tasavvufiy, ham bugungi kun nuqtayi nazaridan pand-nasihat ruhida yozilgan deb talqin qilish mumkin.

Yuzuni ko'rub bo'ldi xijl oy ila kun,

Husn mulkatida Horut aningdek bo'layolmas.

Huvaydo mumtoz adabiyot an'analari, xalq og'zaki ijodining bebafo durdonalaridan bahramand bo'lib, g'azaldagi markaziy obraz – ma'shuqani ohori to'kilmagan baytlarda tavsif etadi. Shoir tengsiz husn - u malohat sohibi bo'lgan ma'shuqani tasvirlashda ilohiy timsollarga juda ko'p murojaat etadi va buni ko'pgina g'azallarida uchratishimiz mumkin.⁴ Jumladan, Yusuf obrazi ham yor go'zalligini bo'rttirib tasvirlash uchun qo'llaniladigan an'anaviy obrazlardan biridir. Ushbu bayt orqali ham shoir o'z yorini shu darajada go'zal hisoblaydiki, uning vasfini mutloq tengsiz qilib tasvirlaydi. "Qissasi Rabg'uziy"da keltirilishicha, Misr xalqida 3 oy ochlik hukm suradi. Xalq yig'gan oziq zaxirasi bilan bir oyni o'tkazishadi. Lekin keyingi ikki oy qanday o'tishi hammani xavotirga solardi. Shu payt Alloh taolodan amr qilinib, Yusuf alayhissalom jamolini butun xalqqa namoyon qiladi (u yuziga niqob tortig'liq yurardi. Shu kuni u niqobini ochdi va butun olam nurafshon bo'lib ketdi). Yusuf diydoridan xalq ikki oy davomida tashnalik va ochlikni butkul unutadi. Demakki, shoir nazdida ma'shuqa chiroyi Yusuf husnidan ham ortiq, ya'ni u husn mulkida yaktodir.

Bulardan tashqari Huvaydo lirikasida Iskandar Zulqarnayn obraziga ham ko'p murojaat qilinadi.

Jahonni zeri nigin aylasang Skandarvor,

Ajal chu yetsa, bo'lur davlati Skandar hech.

Bu yerda shoir Iskandar obrazi orqali dunyoning bevafo va o'tkinchiligiga ishora qiladi, ya'ni inson butun dunyoning mol-davlatini yig'sa ham, ajali yetsa bu dunyodan xuddi Iskandardek qo'li bo'sh holatda ketadi. Bilamizki, Iskandar ko'pgina davlatlarni zabit etib, ulkan saltanat quradi, lekin ajali yetgan paytda mulozimlariga qo'llarini tobudtan chiqarib olib ketishlarini vasiyat qiladi. Bu orqali u insonlarga shuncha davlat yig'gani bilan Alloh huzuriga hech narsa olib keta olmayotganini ko'rsatmoqchi bo'lgan ekan.

³ Ozor berish, xafa qilish, qiyash. Navoiy asarlarining izohli lug'ati. 2-jild. 1983. 21-b.

⁴ Vohidov R. , Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. – T. : O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti , 2006. - 528 b.

Biz yuqorida Xo'janazar Huvaydo ijodidagi talmih san'atining bir nechta namunalarini ko'rib chiqdik, xolos. Aslida shoir lirikasida ko'plab badiiy san'atlarning yorqin namunalarini uchratishimiz mumkin. Uning ijodiy merosi bizga o'xshash adabiyotshunoslar uchun qimmatli manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадойиъу-с-санойиъ . – Т. : Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти , 1981 , – 400 б.
2. Ҳожаназар Ҳувайдо. Девон. – Т.: Янги аср авлоди.2007, 304 б.
3. Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. – Т.: "Zarqalam" , 2006 , – 128 b.
4. Jumaxo'ja N. Huvaydo tasavvufiy she'rларida falsafiy-badiiy talqin. "Sharq yulduzi" журнали, 1998, 4-сон.
5. Navoiy asarlarining izohli lug'ati. Т.: "Fan". 2-жилд. 1983. 644 б.